

ILK SIYOSIY PARTIYALARING SHAKLLANISH TENDENSIYALARI

Lapasov Azizbek Zamonali o'g'li

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
siyosatshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi
azizbeklapasov406@gmail.com Tel: 908822774*

Murodullayev Bekzod Shavkat o'g'li

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
siyosatshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi
bmurodullayev56@gmail.com. Tel: 930644876*

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyo hamjamiyatidagi ilk siyosiy partiyalar va ularning shakllanish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, bu tendensiya jarayonining klassifikatsiyasi va tahlili AQSH va Buyuk Britaniyada tashkil topgan daslabki siyosiy partiyalar misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, torilar, viglar, demokratlar, respublikachilar.

Kirish

Ilk siyosiy partiyalarga doir manbalar qadimgi dunyo tarixida kuzatish mumkin. Er.il. II asr oxiri – I asr boshlarida qadimgi Rimda o'zaro raqobatlashuvchi guruhlar o'zlarini "optimate" (ya'ni, "partiyalar", deb ataganlar. "Optimate" atamasi lotin tilidagi "optimum" so'zidan olingan bo'lib, u "eng yaxshi", "a'lo" ma'nolarini beradi. Rimdag'i bu optimatelarni Rim oliv tabaqasi vakillari - nobilitet vakillari - aristokrat dohiy Lusiy Korneliy Sulla (er.il. 82-79 yillarda Rim diktatori) atrofiga to'plangan guruh tomonidan tuzilgan. Optimatelar avvalambor, aristokratiya manfaatlari, senatorlar qatlaming huquq va imtiyozlarini, shuningdek, ularning yerga egalik huquqlarini himoya qilgan. Optimatelarga qarama-qarshi turganlar "populare", (lotincha "populus" - "xalq"

degani) deb atalgan. Ularning dohiysi Rim sarkardasi va davlat arbobi Gay Mariy (er.il. I asr) edi. Lekin, o'z yetakchilari atrofiga to'plangan bu guruhlarni hozirgi davr nuqtai nazaridan siyosiy partiya, deb bo'lmaydi. Ular hali rasmiylashgan harakat dasturi va o'zining aniq ichki tizilmasiga ega emas edi, ular faoliyati hech qanday qonunlar bilan muvofiqlashtirilmasdi. Ularni bir-birlariga bog'lab turgan omillar - bu o'sha davrdagi manfaatlarning umumiyligi va dohiy shaxsi edi .

Olimlarning taqdijotlariga ko'ra siyosiy partiyalar 3 ta bosqichni bosib o'tishi kerak; to'garak, siyosiy klub va siyosiy partiya. Yuqoridagi bosqichni faqatgina Buyuk britaniyadagi Torilar va Viglar partiyasi bosib o'tganligi va AQSHda ilk ikki partiyaviylik tizimi shakllanishi ilk partiyaviylikning daslabki ko'rinishi deya e'tirof etiladi.

Buyuk Britaniyada Torilar va Viglar partiyasi

Angliyada 1642-yilning yozida fuqarolar urushi boshlandi. Urush burjuaziya boshchiligidagi yangi tuzum tarafdarlari bilan qirol va katta yer-mulk egalari o'rtasida bo'lib o'tdi. Burjuaziya qo'lida bo'lgan parlament bilan Shotlandiya o'rtasida ittifoq tuzildi. Ikki tomonning birlashgan kuchi qirol qo'shini ustidan g'alaba qozondi. G'alabada parlament qo'shinining rahbari Oliver Kromvelning qo'mondonlik mahorati katta rol o'ynadi. Ayni paytda parlament o'z qo'shini mustahkamlash to'g'risida qaror qabul qildi. Qaror natijasida parlament intizomli va yaxshi harbiy tayyorgarlik ko'rgan qo'shinga ega bo'ldi. 1645-yilning 14-iyunida Neybzi qishlog'i yaqinidagi hal qiluvchi jangda qirol qo'shini tor-mor etildi. Qirolning o'zi esa qochib ketdi. 1646-yilda qirol yashiringan Oksfordning taslim bo'lishi bilan fuqarolar urushi tugadi. Bu urushda parlament to'la g'alaba qozondi. Parlament hokimiyatni qo'lga olgach, qator islohotlar o'tkazdi. Jumladan, yangi zodagonlar feodal to'lovlardan ozod etildi. Ularning qo'lidagi yer-mulklar o'zlariga xususiy mulk qilib berildi. Savdogarlar savdo ishlarini ruxsatnomasiz yuritadigan bo'ldi. Qirol va uning tarafdarlari va yepiskoplarning yerlari musodara qilindi. Cherkov parlamentga bo'ysundirildi . 1660-1688 yillar orasida amalga oshirilgan Restavratsiya davrida siyosiy muholifat tobora shakllanib bordi. Natijada qirol hokimiyatini

chegaralashni talab qilib chiqqan vigilar partiyasi tashkil topdi. Bu partyaning boshida yirik aristokratlar sulolasiga vakillari - graf Sheftsberi, Lord Rassel va boshqalar turdi. Partyaning muhim talablaridan biri shahzoda Yakovni katolik mazhabida bo'lganligi uchun merosxo'rlik huquqidani mahrum qilish va katoliklarni davlat lavozimlariga yaqinlashtirmaslik edi. Bu partiya a'zolari o'zlarini "vigilar" deb atashiga sabab shuki, fuqarolar urushi yillarida Shotlandiyadagi katoliklar o'ta murosasiz bo'lgan kishilarni "vigilar" deb ataganlar. Vigilarga qarama-qarshi bo'lgan kuchlar aristokratik torilar partiyasi atrofida birlashdilar. Irlandiyalik katolik-partizanlarni "torilar" deb atashar edi. Bu partiya qirolni qo'llab-quvvatlar va monarx huquqlari chegaralanmasligini talab qilar, shuningdek, mutlaq monarxiya tarafidori edi. Bu partyaning nazariy asoslari faylasuf Gobbs asarlaridan oziqlangan edi. Shuning uchun ham Gobbs Karl II oldiida hurmat-e'tibor qozondi, hatto u qirol xazinasidan nafaqa ham olib turdi. Ikkala partiya ham 1679 yilga kelib o'z shakllanish davrini tugatdi. Karl II shu yilda yangi saylovlar o'tkazish haqida qaror qabul qildi. Yangi parlamentda vigilar ko'pchilik joyni egalladilar. Bu holat yirik sanoat egalari va djentry muhitida muholifatlashuvning o'sib borayotganligini bildirar edi. Vigilar uzoq yillar davomida parlamentni boshqardilar.

AQSHda demokratlar va respublikachilar partiyasi

Dastlabki ikki partiyaviylik tizimining shakllanishiga asos solingen AQShda XVIII asrning 70-80-yillarida partiyalar tuzilishi uchun, tabiiy shart-sharoitlar yetilgan edi. Ilk partiyaviy tizimning paydo bo'lishida Amerika jamiyatining taniqli va buyuk arboblari bo'lgan Tomas Jefferson, Aleksandr Hamilton, Jeyms Madison, Jon Adams kabi shaxslarning o'rni beqiyosdir. 1787 yil Filadelfiyada yangi barpo etilgan davlatning 13 shtatidan Konstitutsiyaviy konventga delegatlar keldi. Konvent qatnashchilari kuchli federal hukumatni barpo etish, oliy ijroiya, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatini tuzish uchun to'planishgan edilar. Asosiy qonunning falsafiy talqinini amalga oshirgan J. Madison va A. Hamilton yangi shakllanishi lozim bo'lgan partiyalarning liderlari bo'lib, bir-biri bilan siyosiy jihatlardan raqobatdoshlar edilar. AQSh ijtimoiy-

siyosiy hayotida kelib chiqqan muammolar bilan bog'liq tarzda har ikkala partiya ham ko'plab bosqichlarni boshidan kechirdi. Umummilliy siyosiy partiyalarning shakllanishi uchun tayanchlar tayyorlash jarayonida bo'lajak tuzumning asosiyo'nalishlari ham aniqlasha bordi. O'sha davrda AQShdagi siyosiy kuchlarning o'zaro ziddiyatlari natijasida ikkita katta partiya vujudga keldi. Bu bilan monarxik tipdagi partiyaning siyosiy maydonga chiqishiga chek qo'yildi. Konstitutsiyani muhokama qilish, tasdiqlash va qabul qilish jarayonidagi kurashda har bir guruhning o'z nuqtai nazarini ilgari surilish, ijtimoiy-siyosiy manfaatlarning qutblashivi natijasida siyosiy kuchlar guruholsha boshladi. Bu jarayonning tezlashishi respublikachilar lideri sifatida siyosiy maydonga chiqqan J. Madison nomi bilan bog'liqdir. U o'z mustaqil dasturi bilan chiqib, Angliyadan mustaqil holda AQShning savdo-iqtisodiy rivojlanishiga erishish masalasini kun tartibiga qo'ydi. J. Madison dasturi uch qismdan iborat bo'lib, ular asosan quyidagilardan iborat edi: tashqi savdoga kredit berish uchun umumiyligi milliy daromadidan mablag' ajratish; savdo floti mustaqillikka erishish uchun yordam berish va Buyuk Britaniya bilan savdo munosabatlarini tartibga solish. J. Madisonning kuchli raqibi bo'lgan A. Hamilton esa unga qarshi o'laroq o'zining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga doir dasturi bilan chiqdi. Bu dasturda davlat kredit tizimini tashkil etish, Milliy bank ta'sis etish kabi muhim va dolzarb tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan edi. Lekin A. Hamilton iqtisodiy mustaqillikka unchalik katta ahamiyat bermagan edi. Uzoq davom etgan tortishuvlardan so'ng 1791 yilda J. Madison rahbarligida respublikachilar, A. Hamilton rahbarligida esa federalistlar partiyasi tarkib topdi. 1800 yilgi saylov kampaniyalarida bu partiyalar o'zlarini goh u, goh bu nom bilan atay boshladilar. Bu noaniqlikni bartaraf etish maqsadida vigilar va torilar deb nomlash ham taklif qilindi. Bu holat partiyalarning hali to'la shakllanib bo'limganligidan dalolat berar edi. Ammo siyosiy partiyalarning maydonga chiqishi, ikki partiyaviylik tizimining paydo bo'lishining o'ziyoq AQSh ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim tarixiy burilish edi.

Xulosa

Buyuk Britaniyadagi fuqarolar urushi (1642-1688), AQSHdagi shimol va janub urushi (1861-1865) natijasida turli siyosiy mafkuralar paydo bo'ldi. Mana shu siyosiy mafkuralar ma'lum bir qatlamini birlashtirishga va siyosiy harakatga aylanishiga turtki bo'ldi. Buyuk Britaniyada qirol hokimiyati tarafdarlari va unga appazitsiyada bo'lganlar konservativizm va liberalizm mafkurasi atrofida birlashdi, AQSHda qulchilik taradorlari va qulchilikka qarshi bo'lgan qatlamlar respublikachilar va demokratlar partiyasini shakllantirdi. Bu ikki davlatda siyosiy partiyalarning rivojlanishida fuqarolarning siyosiy ongi va faol ishtiroki muhim o'rinni tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Моммзен Т. История Рима.-СПб.:Лениздат, 1993, с.149-159.
2. Новая история стран Европы и Америки: Первый период: Учебник для студентов вузов. Под..ред. А. В.. Адо.-Москва: Высшая школа, 1986, с.34-36.
3. Трояновская М.О. США:у истоков двухпартийной системы.- Москва:Междунар. отношения,1989, с.6- 7,13-19.
4. М.Кирғизбоев „Партология” [2006] Тошкент
5. E.Cunningham „ Thr first party system: The formation of American politics 1789-1801” [2003] University North Carolina press